

O'zbekiston Prezidenti Ashxoboddagi yodgorlikka gul qo'ydi



Prezident Shavkat Mirziyoyev Ashxobod shahridagi "Halk hakydasy" ("Xalq xotirasi") yodgorlik majmuasida bo'ldi.

Bu majmua 1880-1881-yillardagi Go'ktepa jangi, Ikkinci jahon urushi va 1948-yildagi Ashxobod zilzilasiga bag'ishlangan uch qismdan iborat. Markaziy monument ortida shu mudhish voqealar haqida hikoya qiluvchi muzey ham bor.

Davlatimiz rahbari o'tganlar xotirasiga hurmat bajo keltirib, yodgorlik poyiga gul qo'ydi. Muzey eksponatlari bilan tanishib, Faxriy mehmonlar kitobida dastxat yozib qoldirdi.



Manba